

# IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

## "KREATIV SINF" – INNOVATSION TARAQQIYOT ASOSI

Sanjar SAIDOV,

Siyosiy fanlar doktori

### Annotation

*this article analyzes the newly emerging concept of "creative class" in modern society, issues related to its essence. The role and role of the concept of "creative class" in socio-political processes and in the formation of the modern economy are subject to analysis.*

### Keywords

*Creativism, political, economic, Society, Law, factor, analytical, Social (Social), Gay, Science and education.*

### Аннотация

*В данной статье проанализированы зарождающееся в современном обществе понятие "креативного класса" и его суть. Проанализированы роль и место понятия "креативный класс" в социально-политических процессах и формировании современной экономики.*

### Ключевые слова

*креативность, политика, экономика, общество, закон, фактор, аналитичность, социальность, идея, наука и образование.*

### Annotatsiya

*ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda yangi paydo bo'lgan "Kreativ sindf" tushunchasi, uning mohiyatiga oid masalalar tahlil qilingan. "Kreativ sindf" tushunchasining ijtimoiy-siyosiy jaronlarda hamda zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni va roli tahlilga tortilgan.*

### Kalit so'zlar

*kreativlik, siyosat, iqtisodiyot, jamiyat, qonun, omil, analistiklik, ijtimoiylik, g'oya, fan va ta'lif.*

XXI asrga kelib zamonaviy dunyo nafaqat moliyaviy-iqtisodiy muammolar bilan, balki ma'nnaviy inqiroz omillari bilan ham yuzlashmoqda. Bular sirasiga globalizmning salbiy elementlari, "ommaviy madaniyat"ning oqimlari va diniy aqidaparastlik kabi omillarni ham kiritishimiz mumkin. Jahonda kechayotgan qadriyatlar inqirozi va ma'lum darajadagi ularning transformatsiyasi jamiyat va ijtimoiy hayotimizga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yangi axborot-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, ikkinchi tomonidan esa ijtimoiy munosabatlarning virtuallashuviga olib kelmoqda.

Bugungi kunda sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarning rivojlanishi o'z navbatida jamiyatda ijtimoiy jarayonlarning taraqqiyotiga, "yangi tip"dagi ijtimoiy sinflarning shakllanishiga asos bo'lmoqda. Buning yorqin misoli sifatida so'nggi paytlarda zamonaviy trendga aylanib ulgurgan "kreativ sindf" nomi bilan bog'lash mumkin.

"Kreativ sindf" (creative class) – bu postindustrial iqtisodiyotga ega jamiyatlarga xos bo'lgan kategoriya hisoblanib, o'zida jamiyatning yuqori darajali madaniy va intellektual salohiyatli qatlamini qamrab oladi. Mazkur atama 2002-yilda amerikalik sotsiolog Richard Florida tomonidan muomalaga kirilgan bo'lib, u o'rta sindfning eng nufuzli qatlamini kreativ sindf sifatida e'tirof etadi va ularni "postindustrial insonlar" deya ta'riflaydi.

Agar jamiyat va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiladigan bo'lsak, tarixan shakllangan sindflar (feodal aristokratiya, burjuaziya, ishchilar sinflari va b.) singari "kreativ sindf" ham o'z davrining, ya'ni bugungi kunning ijtimoiy-tarixiy talabining mahsuli sifatida namoyon bo'la-di. Uning paydo bo'lishida esa jamiyatda kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoj va ijtimoiy hayotga ijodiy yondashuvning oshishi bilan izohlash mumkin. Bu esa o'z navbatida zamonaviy jarayonlarda jamiyatning uzluksiz taraqqiyoti va innovatsion rivojlanishga bo'lgan intilishni tobora oshiradi.

R.Florida o'z tadqiqotlarida deyarli 30 foiz amerikaliklarni kreativ sindf vakillari sifatida e'tirof etadi. U mazkur sindfa, yuksak bilim va ko'nikmalarga ega, o'z oldida turgan vazifalarni (muammolarni) kreativ usulda yechishga qodir bo'lgan zamonaviy kasb egalarini kiritadi [1. 55]. Uning fikricha, bundan keyin aynan kreativ sindf mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida lokomotiv vazifasini bajarib bergani holda, yaratiladigan yangi ish o'rirlari aynan ushbu sindfa tegishli bo'ladi. Bu borada R.Florida shunday ta'kidlaydi: "Men mazkur mavzu bilan shug'ullanishim davomida shunga amin bo'ldimki, aynan kreativlik iqtisodiy taraqqiyot kalliti hisoblanadi. Oxirgi o'n yil ichida kreativlik inson faoliyatining barcha sohalariga kirib keldi. Ya'ni, oldinlari barcha yosh tadqiqotchilar ilmiy faoliyatning an'anaviy turlari bo'lgan san'at, fan va madaniyat sohalari bilan shug'ullanishgan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa sartaroshlik, sotuvchilik, barmenlik kabi kasblar ham ijodiy yondashuvni talab etmoqda."

Shuni ta'kidlash lozimki, postindustrial jamiyatga xos bo'lgan, bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarini qamrab olayotgan avtomatlashuv, robotlashuv va kompyuterlashuv jarayonlarida inson tomonidan ularga raqobat sifatida faqat bitta omil – kreativlik faktorini rivojlantirish vazifasi turibdi. Insondagi aynan "ijodiylik", "kreativlik" kabi intellektual jihatlargina bugungi texnologik asrda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Buning uchun esa har bir inson o'z bilim va malakalarini tobora oshirib, boyitib borishi talab etiladi. Mazkur malakalarni bugungi kun fani nuqtayi nazaridan ikkita: analitik va sotsial (ijtimoiy) turga bo'lishimiz mumkin. Analistik malaka sifatlariga mantiqiy fikrlash ko'nikmasi hamda ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash mahoratini kiritishimiz lozim. Shuningdek, kreativlikning eng muhim belgilaridan yana biri bu, shubhasiz, ijtimoiylashuvdir. U insonga nafaqat jamiyatda yashash, balki jamoani boshqarish, uni tashkillashtirish va yo'naltirish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: "kreativ sinf"ga kimlarni, qaysi kasb egalarini kiritishimiz mumkin?

Sotsiologik tadqiqotlar asosida shunday xulosaga kelinganki, kreativ sinf vakillarini ko'plab sohalarda – tibbiyot va sog'liqni saqlash, arxitektura va dizayn, adabiyot va tasviriy san'at, fan va ta'llim, moliya va huquqiy tizimda ko'rish mumkin [2.97]. O'zining bajaradigan vazifasiga ko'ra ular iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o'ynab, jamiyat integratsiyasiga hissa qo'shadi. Buning uchun ularga mantiqiy fikrlash qobiliyati, kreativ ishlash ko'nikmasi va ijtimoiy kapital zarur bo'ladi. Agarda fikrimizni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, qaysiki shaxs o'z sohasida, mehnat faoliyatida va jamiyatda bajaradigan sotsial vazifasida kreativ yondashuvga asosan ish yuritsa, ularni "kreativ sinf" vakillari sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Mazkur sinfni tadqiq etishda uning jamiyat hayotining bir nechta yo'nalishiga: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishidagi o'rni alohida urg'u berish lozim.

Kreativ sinf iqtisodiy faktorlar asnosida tahlil qilinadigan bo'lsa, uning zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni va rolini alohida e'tirof etish kerak. Bugungi kunda aynan kreativlik – yangi texnologiya, yangi iqtisodiy tarmoqlar va moddiy farovonlikning asosiy manbayidir. Iqtisodchi Pol Romerning "Taraqqiyotga erishish uchun eng avvalo iqtisodiyotning ulushini emas, balki uning retseptini yaxshilash kerak" [3: 9] deya ta'kidlashi ham bejizga emas, albatta. Bu yerda esa o'ziga xos "iqtisodiy retsept" sifatida yangi iqtisodiy g'oyalar, innovatsion yechimlar, bir so'z bilan aytganda, "kreativlik" katta rol o'ynaydi.

Zamonaviy jamiyatlarda "g'oya"lar o'ziga xos iqtisodiy tovar sifatida namoyon bo'laadi. Yangi g'oyalarni, yangi tashhabbuslarni esa eng avvalo kreativ sinf vakillarigina ishlab chiqishga qodir. Mamlakatning har qanday boyligi – foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa turdag'i boyliklarning oxiri bor, faqatgina yangi, innovatsion g'oyalar-nigina cheksiz, chegarasiz deyishimiz mumkin. Bu yerda o'ziga xos "g'ildirak konsepsiysi" ishga tushadi, ya'ni "yaxshi g'oyani qayta va qayta ishlatish mumkin", bu bilan uning qadri

kamayib qolmaydi, aksincha u tobora boyib, sayqallashib boraveradi.

Bugungi kunda, kreativ hamjamiatning rivojlanish dinamikasini belgilashda to'rtta omil mavjud: aholi kreativ fikrlash qobiliyatining butun mamlakat (mintaqa) miqyosida mavjudligi; sotsiomadaniy makonning innovatsionligi; yuksak texnologiya tarmoqlarining rivojlanishi; jamiyatning yangi insonlar va yangi g'oyalarga ochiqligi.

Kreativ sindf vakillari global dunyoga qamrab olingan va ularning ijtimoiy integratsiysi kuchli hisoblanadi. Bugungi kunda aynan ular rivojlangan davlatlarda kun tartibini belgilab bermoqda, aynan kreativ sindf jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantirgani holda o'sib kelayotgan avlodlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda 2018-yil "Faol tadbirdorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi hamda davlat va jamiyatimiz hayotida kechayotgan keng ko'lamli islohotlar asnosida biz uchun bugungi kunda mutlaqo yangi – zamonaviy dunyoqarash, yetuk bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, ijodiy fikrlaydigan va strategik harakat qiladigan, faol fuqarolik va daxldorlik pozitsiyasi bilan yashaydigan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi "kreativ sindf"ni shakllantirish va rivojlantirish eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

---

1. Florida, Richard. Bohemia and Economic Geography // Journal of Economic Geography. – №2. – 2002.
2. Хокинс Дж. Креативная экономика. Как превратить идеи в деньги. – М., 2011.
3. Paul Romer, "Economic Growth," in The Fortune Encyclopedia of Economics, David R. Henderson, ed. New York: Time Warner Books, 1993.